

**AUTIZM SINDROMLI BOLALARDA MULOQOT KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

I.N.Shodmanxojiyeva

Yangi asr universiteti

Maxsus pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

MAQOLA

MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 03.07.2025

Revised: 04.07.2025

Accepted: 05.07.2025

KALIT SO'ZLAR:

Kirish.

Zamonaviy klassifikatsion diagnostik tizimlar autizmni bolaning markaziy asab tizimidagi biologik yetishmovchilik bilan bog'liq bo'lgan (bolaning barcha asosiy psixik jarayonlariga – nutq, ijtimoiy o'zaro ta'sir, xulq-atvor va boshqa rivojlanish sohalariga ta'sir qiluvchi chuqur buzilishlar) buzilish sifatida o'rghanadi.

Autizm spektri buzilishlari bo'lgan bolalar imkoniyati cheklangan shaxslar toifasiga kiradi va atrofdagilarning e'tiborini o'z ehtiyojlari, qiziqishlari va istaklariga jalb qilish ko'nikmalarini o'zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi [7].

Kommunikativ buzilishlar ijtimoiy moslashuvda jiddiy muammolarga olib keladi hamda ushbu toifadagi shaxslarning hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarini shakllantirishni qiyinlashtiradi.

Shuni ta'kidlash kerak-ki, bunday rivojlanish buzilishlariga ega shaxslar soni ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, ushbu toifadagi shaxslarning jismoniy, ijtimoiy -psixologik holatiga eng mos keladigan hamda ularning funksional va individual xususiyatlarini hisobga

oladigan optimal pedagogik yondashuvlar, usullar va texnologiyalarni izlash muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi vaqtida mahalliy va xorijiy amaliyotda autizm spektri buzilishlariga ega shaxslarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish vazifalarini hal etish uchun turli texnologiyalar ishlab chiqilgan va qo‘llanilmoqda, jumladan, adaptiv jismoniy madaniyat vositalari yordamida psixologik-pedagogik korreksiya [12], integrativ psixoterapiya, o‘yin terapiyasi, dramatizatsiya va boshqa usullar keng qo‘llanilmoqda [9, 11, 14, 15].

Shu bilan birga, bunday bolalarning psixofizik salomatligini korreksiyalash va ularning hayot sifatini oshirishning yangi yo‘llarini izlash hanuz muhim muammolardan biri bo‘lib qolmoqda [13]. Bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi kamchiliklarni muayyan sport turlari, masalan, suzish mashg‘ulotlari yordamida korreksiyalash katta ahamiyat kasb etadi.

Suzish jarayonida jismoniy mashqlarning ta’siri suv muolajalarining chiniqtiruvchi omillari hamda organizmning moslashuv imkoniyatlarining oshishi hisobiga kuchayadi [6].

Suzish mashg‘ulotlari bolaning tayanch-harakat tizimini mustahkamlaydi, harakatlar koordinatsiyasini rivojlantiradi, “mushak korseti”ning o‘z vaqtida shakllanishiga yordam beradi va umurtqa pog‘onasining qiyshayishini oldini oladi [8]. Suvda muntazam bo‘lish asab tizimiga tinchlantiruvchi ta’sir ko‘rsatib, bolalarning, jumladan rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning, hissiy barqarorligini oshiradi [12].

Shunday qilib, suv muolajalarining kompleks ta’siri autizm spektri buzilishiga ega bolalarning psixo-emotsional holatini yaxshilashga, o‘z kuchiga ishonch hosil qilish imkoniyatini yaratishga hamda jamoaga tezroq moslashishiga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Autizmda asosiy nuqson — bu bolaning atrof-muhit bilan muloqotining buzilishidir. Shuning uchun kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish — autizm spektri buzilishlarini psixologik-pedagogik korreksiyaning yetakchi yo‘nalishlaridan bিridir[12].

Kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish muammosi bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, autizm spektri buzilishiga ega bolalarda muloqotni rivojlantirish muammosiga turli yondashuvlar mayjud.

O.S.Nikolskaya, E.R.Bayenskaya, M.M.Libling konsepsiyasiga ko‘ra, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish bolaning atrof-muhitga nisbatan affektiv munosabatini rivojlantirish va nutqiy muloqotga bo‘lgan ehtiyojini yaratish orqali amalga oshirilishi lozim. Mualliflar bolaning affektiv rivojlanish darajasiga qarab nutqiy muloqotni rivojlantirish bo‘yicha differensial ish olib borishni tavsiya etadilar. Maxsus psixologiya va korreksion pedagogikada autizm spektri buzilishiga ega bolalarda kommunikativ

ko‘nikmalarni shakllantirishga doir xulq-atvor, psixolingvistik va psixoanalitik yondashuvlar keng tarqalgan[12].

Xulq-atvor yondashuvi autizm spektri buzilishiga ega bolalarda adaptiv kommunikativ namunalarni shakllantirishni xulq-atvorni qo‘llab-quvvatlovchi tashqi sharoitlarni yaratish, maxsus tashkil etilgan moddiy va ijtimoiy muhit orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv xorijiy mamlakatlarda eng keng tarqalgan bo‘lib, so‘nggi yillarda mahalliy mutaxassislar ishida ham tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda.

Psixolingvistik yondashuvda nutqiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni shakllantirishga, nutqiy ifodaning tuzilishini, uning semantik ma’nosini yaratishga hamda kommunikativ nutqdan uning ma’nosiga muvofiq ravishda turli ijtimoiy kontekstlarda foydalanish imkoniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi[4].

Psichoanalitik yondashuv tarafidori autizmga ega bolalarni kommunikativ ko‘nikmalarga maqsadli o‘qitish zarurligini inkor etadilar. Ularning fikricha, autizmli bolaning nutqi uning o‘z-o‘zini anglashiga bog‘liq ichki psixik ziddiyatlar hal etilishi jarayonida mustaqil ravishda yanada moslashgan holga keladi. Aksariyat mutaxassislar psichoanalitik yondashuvni autizmga ega bolalarda kommunikativ buzilishlarni korreksiya qilishda noo‘rin va samarasiz deb hisoblaydilar[1, 2].

Natijalar.

Yuqorida tavsiflangan har bir yondashuvning o‘ziga xos afzallikkleri va chekllovleri mavjud. Shuning uchun ko‘plab zamonaviy tadqiqotchilar autizmga ega bolaga korreksion yordam ko‘rsatish va uni o‘qitish eng samarali bo‘lishi uchun turli yondashuvlarni uyg‘unlashtirish va birlashtirish zarur, degan fikrga keladi. Odatda korreksion ishning asosi sifatida yondashuvlardan biri tanlanadi, so‘ngra u boshqa yo‘nalishlarga oid bo‘lgan korreksion, rivojlantiruvchi va o‘quv metod hamda usullar bilan to‘ldiriladi.

Bundan tashqari, turli yo‘nalish vakillari autizm spektri buzilishiga ega bolalar bilan ishslash bo‘yicha amaliy va metodik tavsiyalarni taklif etar ekan, o‘z ishlariga **yondosh** yondashuvlarga oid metod va usullar tavsifini ham kiritadilar. Bunda ushbu usul va metodlarning aynan mazkur nazariy yo‘nalish doirasida qo‘llash xususiyatlari yoritib beriladi.

Ko‘pincha turli mualliflar tomonidan umumqabul qilingan bir xil metodik usullar qo‘llanadi. Masalan, buning tarkibiga nutqni faollashtirish usullari, jumladan, exolaliyalarni qo‘zg‘atish; izoh berish; maslahat (yo‘l-yo‘riq) ko‘rsatish; rag‘batlantirish va boshqalar kiradi.

Muhokama.

Shunday qilib, autizm spektri buzilishlarini korreksiya qilish jarayonida yondashuvlarning tabiiy integratsiyasi amalga oshiriladi, bu esa korreksion ish va autizmga ega bolalarni o‘qitish samaradorligini oshirishga olib keladi.

Zamonaviy maxsus adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadi-ki, turli nazariy yo‘nalishlar vakillari autizmga ega bolalarda kommunikativ nutqni rivojlantirishning aniq metod va usullarini bayon etganlar [12]. Ayrim mualliflar autistik buzilishlarning bir turi mavjud bo‘lgan tor doiradagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalar guruhlarini shakllantirish usullarini ko‘rib chiqadilar. Ko‘pincha asosiy e’tibor nutqni umumiy rivojlantirishga qaratiladi. Chet el adabiyotlarida kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish metodikalari keltirilgan bo‘lib, ularni ijtimoiy-madaniy sharoitlar va o‘zbek tilining xususiyatlariga moslashtirishda bir qator noqullayliklar mavjud [5].

Xulosalar.

Shunday qilib, mahalliy adabiyotlarda autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan, batafsil ishlab chiqilgan va izchil korreksiya tizimining yetishmasligini ko‘rshimiz mumkin.

Natijada, autizmga ega bolalar bilan ishlovchi psixologlar, defektologlar, logopedlar, pedagoglar, tarbiyachilar va ularning ota-onalarida kommunikativ ko‘nikmalarni o‘rgatish mazmuni va metodlarini tanlashda muammolar yuzaga keladi. Shu bilan birga, bunday bolalarni kommunikativ xulq-atvor namunalariga o‘rgatish ularning ijtimoiylashuv jarayonidagi qiyinchiliklarini sezilarli darajada yengib o‘tishga yordam beradi.

Faydalilanigan adabiyotlar

1. Bettelheim B. The empty fortress: Infantil autism and the birth of the self. – New York: Free Press. – 1967.
2. Ekstein R. On the acquisition of speech in the autistic child. Reiss-Davis clinical bulletin. – 1964. – Vol.2. – pp. 63.
3. Shodmanxojiyeva I.N. // Mutaxassislarning autistik spektrida buzilishi bo‘lgan bolalar va ularning ota-onalari bilan hamkorligi // Bola va Zamon / № 2 / 2023 68-69 b.
4. Tager-Flusberg H. Psycholinguistic approaches to language and communication in autism. In E.Schopler & G. Mesibov (Eds.), Communication problems in autism (pp. 69 – 87). – New York: Plenum. – 1985.
5. Watson L.R., Lord C., Schaffer B., Schopler E. Teaching Spontaneous Communication to Autistic and Developmentally Handicapped Children. – Austin, TX: PRO-ED. – 1989. – 138 p.

-
6. Афанасьев В.З. Экспериментальное обоснование применения специальных упражнений и закаливающих процедур в процессе обучения плаванию детей младшего школьного возраста. М., 1971. 32 с.
7. Богдашина О. Аутизм. Определение и диагностика. Донецк: Лебедь, 1999. 112 с.
8. Булгакова Н.Ж. Плавание: учебник для вузов. М.: Физкультура и спорт. 2001. 400 с.
9. Карвасарская Е.Е. Осознанный аутизм, или мне не хватает свободы. М.: Изд-во Генезис, 2010. 400 с.
10. Лебединская К.С., Никольская О.С., Баенская Е.Р. Дети с нарушениями общения: Ранний детский аутизм. М.: Просвещение, 1989. – 95 с.
11. Лэндрет Г.Л. Игровая терапия: искусство отношений. М., 1994. 365 с. Макарова А.В. Драматизация как средство помощи аутичным детям // Дошкольная педагогика. 2002. № 4 (8). С. 41–43.
12. Никольская О.С., Баенская Е.Р., Либлинг М.М. Аутичный ребенок. Пути помощи. Изд. 5-е, стер. М.: Теревинф, 2009. 288 с.
13. Фомичева Е.Н. Адаптивная физическая культура в реабилитации детей школьного возраста с расстройством аутистического спектра // Антропные образовательные технологии в сфере физической культуры: сб. статей по матер. I Всерос науч.-практ. конф. НГПУ им. К. Минина. Нижний Новгород, 2015. С. 243–248.
14. Эрц Нафтульева Ю.М. Поведенческая программа инклузии как способ помощи особому ребенку // Воспитание и обучение детей с нарушениями развития. 2012. № 5. С. 33–38.
15. Макарова А.В. Драматизация как средство помощи аутичным детям // Дошкольная педагогика. 2002.